

11 2022

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


ILMIY
AXBOROTLARI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ILMIY-NAZARIY JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL



АНИҚ ФАНЛАР
ТАБИИЙ ФАНЛАР
ФАЛСАФА
ПЕДАГОГИКА
ПСИХОЛОГИЯ
ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР
ФАНЛАР

ONA TILI TA'LIMIDA MATN TUZILISHINI O'RGATISH ORQALI NUTQ O'STIRISH

Mavlonova K.M. - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotation. Bog'lanishli nutq o'stirish metodikasining asosiy masalalari sirasida nimani, qancha, qachon, qanday qilib o'rgatish kerakligi, ya'ni ta'lim mazmunini belgilash va rejalashtirish, ona tilini o'qitish mazmunini boyitish hamda yangi yo'nalishga moslash muhim o'rinn tutadi. Zero, bog'lanishli nutq o'stirishni shior qilib olish boshqa, aniq mavzularni ta'lim mazmuniga kiritib, matnning tuzilishiga doir tegishli bilim berib borish, mashqlar bajarish boshqa. Bir so'z bilan aytganda, matn yaratish darajasidagi ta'lim mazmuni orqaligina bog'lanishli nutqni rivojlantirish ishlarini amalga oshirish zarurat hisoblanadi. Mazkur maqolada ona tili darslarida matnning tuzilish xususiyatlarini o'rganish zarurati dalillangan, mavjud adabiyotlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ona tili ta'llimi, bog'lanishli nutq, matn lingvistikasi, murakkab sintaktik butunlik, matn tuzilishi, matniy xatolar.

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ СТРУКТУРЕ ТЕКСТА ПРИ ОБРАЗОВАНИИ РОДОЯЗЫЧНОГО

**Мавлонова К.М. - доцент Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои,
доктор философии педагогических наук (PhD)**

Аннотация. Чему, сколько, когда и как учить, т. е. определение и планирование содержания образования, обогащение содержания обучения родному языку и адаптация его к новому направлению, относятся к числу основных вопросов методики развития связной речи. Ведь одно дело взять за лозунг развитие связной речи, другое дело включить в содержание обучения конкретные темы, дать соответствующие знания о структуре текста, выполнить упражнения. Словом, развивать связную речь необходимо только через учебный контент на уровне создания текста. В данной статье доказывается необходимость изучения структурных особенностей текста на занятиях по родному языку, анализируется имеющаяся литература.

Ключевые слова: родной язык, связная речь, лингвистика текста, сложная синтаксическая целостность, структура текста, текстовые ошибки.

DEVELOPING SPEECH BY TEACHING TEXT STRUCTURE IN MOTHER TONGUE EDUCATION

Mavlonova K. M. - dotsent of Tashkent State University of Uzbek Language and

Literature named after Alisher Navoi, Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD)

Annotation. What, how much, when and how to teach, that is, determining and planning the educational content, enriching the mother tongue teaching content and adapting it to a new direction are among the main issues of the connected speech development method. After all, taking the development of connected speech as a slogan is one thing, including certain topics in the educational content, teaching relevant information about the structure of the text and doing exercises are quite different things. In short, it is necessary to carry out activities related to the development of connected speech through the educational content at the level of text creation. In this article, the need to study the structural features of the text in the native language classes is proven and current available resources are analyzed

Key words: native language education, connected speech, text linguistics, complex syntactic integrity, text structure, text errors.

Ona tili darslarida har bir til hodisasi yuzasidan birinchi navbatda nutqiy kompetensiya shakllana boshlashi lozim. Shunda o'quvchi til hodisalarini nima uchun o'rganayotganligi, nima uchun matn bilan bog'layotganini tushunib yetadi. Bu o'rinda og'zaki va yozma nutq kompetensiyasini o'zaro bog'lash muhim ahamiyatga ega.

Bog'lanishli nutqni ifoda etuvchi matnning qanday tuzilishga ega ekanligi shu kunga qadar chuqur va atroficha yoritilmagan. Vaholanki, milliy o'quv dasturining zamirida o'qish (matn) yotadi. O'quvchilarni matniy jihatdan savodxon qilib tarbiyalash, matniy savodxonlik asosida ularni hayotga tayyorlashdek mas'uliyatli, o'ta murakkab, ayni paytda kuchli zaruriyat hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar, albatta, ona tili ta'limi zimmasiga yukланади. O'quvchilarda matn yaratish uchun zarur bo'lgan malakalarni tarbiyalash lozim, ammo matn tuzish uchun zarur ushbu jihatlarga ona tili ta'limida yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Aksariyat holatlarda o'quvchilar matnni empirik tarzda, nazariyaga doir elementar bilimlarsiz, stixiyali ravishda tuzadilar. Har bir o'quvchi uzoq vaqt davomida va ko'p marotabalik mashqlar asosida matnning yetakchi qonuniyatlarini intuitiv tarzda qidirib topadi va imkon, uquvi yetganicha tajriba orqali egallaydi. Ya'ni mazkur muhim ko'nikmalar matn tuzilishiga oid ta'lim berilmay amalga oshadiki, bu o'quvchilarda yozma fikr ifodalash, matn yaratish bilan bog'liq nutqiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Metodika ilmida matn ikki jihatdan talqin qilinadi: grammatik hamda pragmatika jihatdan. Grammatika orqali matn tuzilishi bilan bog'liq tushunchalar o'rganilsa, pragmatika orqali matniy til hodisalarining nutqda qo'llanishi o'rgatiladi. Ona tili darslarida grammatika bilim berish vositasi sifatida namoyon bo'ladi, pragmatika esa mashqlar orqali bilimlarni ko'nikma va malaka darajasida qo'llashda namoyon bo'ladi. Grammatikaning matn qismlari bilan bog'liq sohasi murakkab

sintaktik butunlik deb nomlanadi. Keyingi davrda murakkab sintaktik butunlik abzasga tenglashtirilmoqda. Bilimlar sathi iyerarxiyasida pragmatika lingvistikaga qaraganda yuqoriroq o'rinda turadi. Til sistema sifatida mavjud, pragmatika ushbu sistemadan qay tarzda foydalанишini o'рганади. Nutqiy asarlar tahliliga lingvistik jihatdan yondashuvning mohiyati matnning muallif maqsadiga bog'liqligini aniqlashdan iborat, chunki so'zlovchi yoki yozuvchining pragmatik ko'rsatmasining ta'siri butun fikr bayon qilishga yoyiladi (taalluqli bo'ladi). Shunga ko'ra darsliklarni shu nuqtayi nazardan tahlil qilganda ayrim so'zlar va gaplar asosida tuzilgan mashqlar foydasiz bo'lib qoladi. Ayrim olingan til birligi leksik va grammatic ma'noni aniqlash ishini qiyinlatiradi. Chunki so'z "hayotdan uzilgan" bo'ladi [1, 10–14].

Tilshunoslikka doir adabiyotlarda talqin qilinishiga ko'ra matn tuzilishi ikki xil ma'noda: keng va tor ma'nolarda tushuniladi. Keng ma'noda matn kirish, asosiy qism va xulosadan iborat ekanligi, ular bilan bog'liq ayrim o'rganish muhim bo'lgan til birliklari mavjudligi nazarda tutilsa, tor ma'noda matn sintaksisida keyingi davrlarda ajratilgan murakkab sintaktik butunlik va abzas bilan bog'liq matn tuzilishi nazarda tutiladi. Ayni tor ma'nodagi matn tuzilishi keng qamrovga ega.

Bugungi kunda matn hodisasining uch asosiy va keng tarqalgan tavsifi mavjud. Birinchidan, matn til tizimining fonema, morfema, so'z, gap kabi birliklariga nisbat berilgan holda qaralib, ushbu tizimning eng yuqori bosqichidagi birlik sifatida talqin qilinadi. Tabiiyki, bunday yondashuvda matn grammatica nuqtayi nazaridan o'rganilib, asosiy e'tibor matn tuzilishini ta'minlovchi sintaktik-mazmuniy munosabatlar, ulardagi aloqa turlari hamda ushbu aloqalarni shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalar majmuasini aniqlashga yo'naltiriladi. Ikkinchidan, tavsif markazida "faoliyatdagi, harakatdagi lison" g'oyasi turadi hamda matn til tizimining nutqdagi mahsuli sifatida talqin etiladi. Nihoyat, uchinchi talqinga ko'ra, matn – nutqiy muloqot tizimi birligidir, unda muloqot ishtirokchilari – adresat va adresat munosabati, maqsadi ifodalananadi [7].

Matnning tarkib topishi va mavjud bo'lishida yagona bir butunlikni tashkil etuvchi mazmun doirasi va shakl ko'rinishlari turli asosga ega bo'ladi: mazmun butunligi voqelevkdagi hodisani to'liq aks ettirish maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, shakl ushbu mazmunni bayon etish uchun xizmat qiluvchi lisoniy belgilar tuzilmasidir. Demak, matn shakliy tuzilishi jihatidan ikki qobiqli hodisa sifatida qaralishi lozim, chunki unda janr va uslub shakllari birikadi. Bunda janr umumiy shaklning obyektiv asosini yaratса, uslub uning subyektiv tomonini yuzaga keltiradi [2, 7].

Tilshunos M.Yo'ldoshev badiiy matn haqidagi fikrlarini shunday izohlaydi: "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish

xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek, qat’iy mantiq, soddalik, tushunarilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniadi. Ta’sirchanlik birinchi planga ko‘tariladi. Ohangdor, jozibador so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg‘un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi”. [5, 35]

Jahon hamda o‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasiga oid yaratilgan ishlar tahlilidan bilish mumkinki, matn tuzilishi bilan bog‘liq masalalar keyingi davrda yanada kengroq o‘z talqinini topa boshladi. Bunday talqin va tahlillar rus va o‘zbek tilshunoslarning asarlari yuzasidan M.Rixsiyeva tomonidan amalga oshirilgan. Barcha ishlar pirovardida gap murakkab sintaktik butunlikka, ba’zan unga teng keladigan abzasga borib taqaladi. Rus tilshunoslari murakkab sintaktik butunlik (MSB) boshlama (zachin), asosiy qism, xulosadan iborat bo‘lishini ta’kidlaganlar [9, 27].

M.Rixsiyevaning “Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarni matn tuzishga o‘rgatish” mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasining birinchi bobি birinchi fasli (“Matn tuzilishining nazariy asoslari”)da quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Matn va MSB munosabati.
2. Matn va mavzu.
3. MSB va abzas.
4. MSBning tashkiliy (kompozision) qismlari.
5. MSBning semantik-grammatik qurilishi [9, 144].

Tadqiqotning tavsifli jihat shundaki, matn 3 ta murakkab sintaktik butunlik yoki abzasdan iborat bo‘lsa, har bir MSB yoki abzas boshlama, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. Dissertasiyaning ushbu nazariy qismi to‘lig‘icha, aniqliklar va to‘ldirishlar kiritilgan holda R. Yo‘ldoshev va M.Rixsiyevalarning “Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmaning birinchi bobiga kiritilgan. Mualliflar bir necha abzasdan iborat butun bir matnning kompozision qismlari bilan MSB (abzas) kompozision qurilishini quyidagicha qiyoslaydilar [4, 30]:

Matnning funksional-semantik turiga xos kompozision qurilish

Matnning funksional turi	Keng ma’nodagi matnning umumiy tashkiliy tuzilishi	Abzasga (MSBga) xos tashkiliy tuzilish
Rivoya-matn	Voqeanning boshlanishi – asosiy qism (tugun, voqeanning rivoji – kulminatsiya) – voqeanning nima bilan tugashi (yechim, xulosa)	Voqeanning boshlanishi, davom etishi, (tugashi)

Tasvir-matn	Predmet, shaxs, voqeani ma'lum qilish – asosiy qism (tasvirlash) – xulosa	Shaxs, predmet, o'rinn-joyni ma'lum qilish – uni tasvirlash – (xulosa)
Muhokama-matn	Tezis – asosiy qism (asoslash va dalillash) – xulosa	Tezis – dalillash – xulosa

Matn tuzilishi uning qismlarga bo'linishidangina iborat emas. Matn tuzilishi juda keng ko'lamli til hodisalarini qamrab oladi. Buni metodist olimlar o'quvchilarning ijodiy yozma ishlarini o'rganish natijasida aniqlashga muvaffaq bo'ldilar.

Agar matn tuzilishini kirish, asosiy qism va xulosadan iborat deb qaralsa, ona tili darsliklarida ham ushbu elementlar haqida so'z yuritiladi, demakki, matn tuzilishi masalalariga darsliklarda mazkur yondashuv asosida qaralgan.

Keyingi paytlarda ayrim metodik adabiyotlarda matn tuzilishi, matniy xato turlari haqidagi ma'lumotlar qisman yoritila boshlandi. Matn tuzilishini o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradigan omillardan biri o'quvchilar nutqidagi matniy xatolardir. M.Lvov bu masalaga o'quv qo'llanmasining 9-bobini bag'ishlagan [8, 327–335]. Muallifning haqli ta'kidlashicha, metodikada odatda imloviy, punktuasion, grafik, husnixatga oid xatolar ko'rsatiladiki, bular yozma nutqqa xos (qaydash) xatolardir. Og'zaki nutqda esa orfoepik, urg'uga oid, intonasion xatolar, nutqning monotonligi aytildi. Muallif leksik (so'zni noto'g'ri tanlash, o'rinsiz ishlatish); morfologik (so'z shakllarini hosil qilish va qo'llash); sintaktik (noto'g'ri tuzilgan gap) so'z birikmalaridagi xatolar, me'yordan chetga chiqishlarni nutqiy xatolar sirasiga kiritadi.

Matnning tashkiliy qismlari yuzasidan Rossiya maktablarining boshlang'ich sinflari uchun tavsiya etilayotgan ta'lim mazmuni ancha keng ko'lama bo'lib, ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflari uchun belgilangan ta'lim mazmuniga nisbatan birmuncha ko'proqdir. Chunonchi, unda matn, gap, xat boshi, abzas, gaplar guruhi, umumiyl mavzu, kichik mavzu, matnning birinchi va oxirgi gapi, asosiy ma'no (mazmun), ketma-ket bog'lanish, parallel bog'lanish, asosiy qismda fe'l shakllarining uyg'unligi, matnda dialoglarning berilishi, sarlavha tushunchalari aks etgan.

Ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida ona tilidan matnga doir beriladigan bilimlar mazmuni Rossiya maktablarining boshlang'ich sinflari uchun tavsiya etilayotgan ta'lim mazmunidan hajmining torligi bilan ancha farq qiladi. Shu bois bugungi kunda quyidagi masalalarni ilmiy jihatdan o'rganish va hal etish muhim ahamiyat kasb etadi:

- boshlang'ich sinflarda matn tuzilishini shu sinflar o'quvchilari uchun mos optimal hajmda o'rganish zaruriyat ekanligi;
- matnning o'ziga xos xususiyatlarini bilish nutq madaniyatini egallash

vositalaridan biri ekanligi;

- matnning tuzilish xususiyatlari talqini [3, 7].

Matniy xatolarni turlarga bo‘lish borasida “Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi” qo‘llanmasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu qo‘llanmada umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari yozgan ijodiy yozma ishlardagi matniy xatolarni aniqlab, tasniflab, izohlangan, insho yozish (matn yaratish) jarayonida bilish shart bo‘lgan bilimlar mundarijasini belgilashga oid ayrim takliflar bayon qilingan, ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlar metodikasi umumiylar tarzda yoritib berilgan. Qo‘llanmada ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarda ona tili o‘qitish metodikasida ilk bor o‘ziga xos tasnif amalga oshirilgan. Chunonchi, o‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan matniy xatolar to‘rt guruhga ajratilgan: 1) insholardagi tashkiliy-texnik matniy xatolar; 2) mazmuniy-mantiqiy matniy xatolar; 3) gaplarni o‘zaro leksik-grammatik bog‘lashga (jumladan, tinish belgilariga) doir matniy xatolar; 4) matn qismlarida uning tipiga xos kompozision tuzilish bilan bog‘liq matniy xatolar [4, 34].

O‘quvchilarning yozgan insholarini o‘rganish shuni ko‘rsatganki, ular mavzuni yoki sarlavhani, epigrafni sahifada ba’zan o‘z o‘rniga qo‘yib joylashtira olmaydilar. Matn mazmuniga mos she’r, hikmatli so‘z, hadis, maqol, sitata kiritadilar, lekin tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘ya olmay, xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ushbu kamchiliklar matn mazmuni bilan bog‘lanmagani, inshoni o‘qishda uni tushunishga monelik ko‘rsatmagani uchun tashkiliy-texnik xatolar deb nomlanishi to‘g‘ri bo‘lgan.

Mualliflar tashkiliy-texnik xatolarga quyidagi xato turlarini kiritganlar:

- 1) matnni, uning tegishli qismlarini xatboshidan yozmaslik;
- 2) reja tuzmaslik (rejani xato tuzish, inshoda rejaga amal qilmaslik);
- 3) insho uchun epigraf tanlay olmaslik;
- 4) insho matniga hadis, maqol va matallarni to‘g‘ri krita olmaslik;
- 5) inshoga sitatani to‘g‘ri krita bilmaslik;
- 6) inshoda she’riy parchalarni to‘g‘ri joylashtira olmaslik [4, 34].

Bir fikrni bayon qila boshlab, uni anglash qiyin bo‘lgan holatda tugatish esa alohida olingan gap mazmunidan tashqari, bir butun matn mazmunining kemtik, ilgari surilmoqchi bo‘lgan g‘oyaning noaniq bo‘lib qolishiga olib keladi. Bu kabi kamchiliklarni ham matniy deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi. Ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- 1) matnda yoritilayotgan kichik mavzularni qorishtirish, ular bilan bog‘liq ravishda abzaslar chegarasini ajrata olmaslik;
- 2) fikrni bayon qilishda mantiqiylikning buzilishi;
- 3) tasvir-matnlarda fikrni izchil bayon etishdagi matniy xatolar;
- 4) rivoya-matnlarda fikrni izchil bayon etishdagi matniy xatolar;
- 5) muhokama-matnlarda fikrni izchil bayon etishdagi matniy xatolar.

- 6) gap mazmunidagi g‘alizliklar bilan tavsiflanuvchi matniy xatolar;
- 7) fikr noaniqligiga olib keluvchi leksik xatolar [4, 58].

Bizning maqsadimiz matniy xatolarning hammasini sanab ko‘rsatish emas, balki ularning hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar sifatida ko‘pligiga ishora qilish, o‘rgatish metodikasini qoidalar tuzish yo‘li bilan o‘quvchilarga yaqinlashtirish, takomillashtirishdir. Tilshunoslikda va til o‘qitish ilmida bayon qilingan yechimlar ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatishning mazmun-mundarijasini belgilab chiqish uchun ma’lum darajada lingistik asos vazifasini bajarishi aniq. Lekin, ta’kidlash joizki, matniy xatolarning ma’lum bir qismi ona tili morfologiya va sintaksis kursida o‘tiladigan til birliklari munosabati bilan matnning tuzilish elementlari sifatida o‘rganilishini ham hisobga olish zarur.

Shubhasiz, matn tuzilishiga oid ta’lim mazmunini belgilashda quyidagi me’yorlardan kelib chiqiladi:

- 1) tilshunoslikning so‘nggi yutuqlarini nazarda tutish;
- 2) amaldagi ona tili darsliklari asosida boshlang‘ich sinflardan e’tiboran o‘rganiladigan mavzularni hisobga olish;
- 3) metodik adabiyotlardagi tavsiyalarni, ayniqsa, o‘quvchilar nutida yo‘l qo‘yilayotgan matniy xatolar va ularning tasniflarini ko‘zda tutish.

Tilshunoslikka doir adabiyotlar, metodik izlanishlarda bayon qilingan eng muhim matniy bilimlar mundarijasini nazarda tutganda, darsliklarda berilayotgan bilimlarning yetarli emasligi, mashqlar ham tizim holida emasligiga ishonch hosil qilish qiyin emas. Buni o‘quvchilar ijodiy insholarida (yozma ishlarida) yo‘l qo‘yayotgan matniy xatolarni tuzitish yo‘lida ko‘rilayotgan choralarining kifoya qilmayotganligidan ham bilish mumkin.

Muammoning ildizlarini aniqlash maqsadida maktablarda darslar kuzatildi, o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan suhbatlashildi, o‘qituvchilardan so‘rovnomalari olindi. So‘rovnoma Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Qashqadaryo, Farg‘ona, Navoiy, Sirdaryo, Samarqand, Jizzax, Buxoro va Xorazm viloyatlarining ona tili va adabiyot fani o‘qtuvchilari ishtirok etishdi.

So‘rovnoma quyidagi savollardan foydalanildi:

1. Ona tili darslarida “...mavzusida matn tuzing” degan topshiriqlar qanday noaniqliklarga ega?

- a) matn tuzish mashqlari orqali nima tekshirilayotgani aniq emas;
- b) o‘quvchilarga nima uchun qanday baho qo‘yish kerakligi noaniq;
- d) tuzilgan matnlarni qachon va qay tarzda tekshirish kerakligi noaniq.

2. O‘quvchi tuzgan matnni tekshirganda nimalarga e’tibor qaratasisiz?

- a) asosan imlo va ishoraviy xatolariga;
- b) imlo xatolari va matn hajmiga;
- d) matn tuzilishi va gaplar bog‘lanishiga.

3. Sizningcha, “... mavzusida matn tuzing” degan topshiriqni bajarishdan oldin matn tuzilishini o’rgatish kerakmi?

- a) menimcha, o’rgatish kerak emas;
- b) o’quvchi matn tuzilishini amaliy o’rganaveradi;
- c) menimcha, o’rgatish kerak.

4. Matn tuzilishi deganda nimani tushunasiz?

- a) matnning kirish, asosiy qism, xulosadan iborat ekanligini;

b) matnning abzaslardan, abzaslar esa o’zaro turli vositalar yordamida bog’langan gaplardan tuzilganligini;

- d) mavzu doirasida tuzilgan gaplarning to‘g‘ri shakllantirilganligini.

5. Siz matn tilshunosligiga oid nazariy adabiyotlar bilan tanishmisiz?

- a) ha, tanishman;

- b) yo‘q, tanish emasman;

d) “Ona tili” darsliklarida berilgan ayrim nazariy ma’lumotlar bilangina tanishman.

6. Darslikdagi “O‘zaro bog’lanayotgan bo‘lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko‘rsatuvchi bog’lovchilar ayiruv bog’lovchilari hisoblanadi” kabi nazariy ma’lumotlarning qaysi jihatni mashq bilan mustahkamlanmay qoladi?

- a) o‘zaro bog’lanayotgan bo‘laklar degan jihatni;

- b) o‘zaro bog’lanayotgan gaplar degan jihatni;

- d) ayiruv bog’lovchilar degan jihatni.

7. Matn tuzilishi bilan bog‘liq qoidalarni bilsangiz, o‘quvchilar tuzgan matnlardagi matniy xatolarni tuzatgan bo‘larmidингиз?

- a) ha, tuzatgan bo‘lardim;

- b) yo‘q, bu muhim emas;

- d) faqat amaliy mashqlar orqali ishlardim.

8. Sizga matn tuzilishi bayon qilingan metodik qo‘llanmalar kerakmi?

- a) ha, juda zarur;

- b) yo‘q, darsliklardagi ma’lumotlar yetarli;

- d) matn tuzilishini bilish muhim emas.

So‘rvonoma natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, aksariyat o‘qituvchilar matn tuzilishiga oid ta’lim mazmunining ishlab chiqilishini qo‘llab-quvvatlagan holda matn tuzilishini o’rgatishga oid o‘quv-metodik adabiyotlarga ehtiyoj bor deb hisoblaydilar.

Gap turlarini, gaplarning o‘zaro bog’lanishini matn yaratish darajasida o’rganish, shu asnode matn tuzilishiga doir bilim va malakalarni qo‘lga kiritish o‘quvchilarda aniq maqsad sari intilish paydo qilib, ona tilini samarali egallash uchun mustahkam poydevorni vujudga keltiradi. Zero, til hodisalari, asosan, bog’lanishli nutq orqali harakatga kelib, o‘zining real kommunikativlik xususiyatini namoyish

qiladi. Boshqacha aytganda, ushbu materiallar, ular bilan bog'liq qoidalar matn tuzilishi orqali o'r ganilmas ekan, egallangan bilim va malakalar ko'proq lingvistik kompetensiyani shakllantirish darajasida qolib ketaveradi. Bunday bo'lmasligi uchun esa ta'lif mazmuniga matn tuzilishiga doir mavzularni kiritish lozim.

Adabiyotlar

1. Антонова Е.С. Где искать ресурсы для обновления школьной методики?// Русский язык в школе. – 2007. № 6.
2. Боймирзаева, С. *Бадиий матнда қўйима гап*. Монография. Самарқанд: СамДУ нашри, 2008.
3. Бекниязова, Н. *Бошлангич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиши методикаси* (таълим ўзбек ва қоракалпок тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. Тошкент: Фан ва технологиялар, 2012.
4. Yo'ldoshev, R.A., Rixsiyeva, M.M. *Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
5. Йўлдошев, М. *Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари*. Тошкент: Фан, 2007.
6. Зиёдова, Т.У. *Матн яратиши технологияси*. Монография. Тошкент: Фан, 2008.
7. Левченко, Е. О первичных и вторичных свойствах текста // Стереотипность и творчество в тексте. – Пермь, 2004, Вып.7. – С.174–184; Brinker K. Linguistische Textanalyse. Eine Einführung in Grundbegriffe und Methoden. – Berlin, 1997.
8. Львов, М. *Методика преподавания русского языка в начальных классах*: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сосновская. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007.; Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. *Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
9. Рихсиева, М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларни матн тузишга ўргатиш. Пед.фуномз. ... дисс. Тошкент, 2009.